

**INTENSIVLIKNI YUZAGA KELITIRUVCHI USULLAR**

To'xtayeva Dilafruz Ashurovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika

kafedrasi o'qituvchisi

Elektron pochta: dilafruztukhtayeva1988@gmail.com

Annotatsiya. *Intensivlik parametrik miqdorlarning birinchi bosqich belgilari bo'lib, narsa-predmetlarning bevosita xususiyati sifatida harakat qiladi. Intensivlik nafaqat ekspressivlik o'lchovi (asosan, matnga turli xil kuchaytirikichlarning kiritilishi bilan bog'liq), balki uning tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'ladi. Agar gapda biron-bir xususiyat kuchayib ketsa, u holda umumiy gap ekspressivlikka ega bo'lishi mumkin. Intensivlik miqdor o'lchovi sifatida uni yuzaga keltiruvchi o'ziga xos usullarga ega bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *intensivlik, sintaktik usul, miqdor, kuchaytirish, ta'kidlash, sintaktik birlik, tartib, belgi, o'lchov.*

Insonlar o'rtasidagi muloqot semantikaning asosiy kategoriyasi bo'lgan lingvistik birliklarning ma'nolarini bilish tufayli amalga oshiriladi. Semantik kategoriyalarga mantiqiy yoki psixologik mohiyatdan ko'ra lingvistik mohiyatga ega bo'lgan mazmun birliklari kiradi. Ular maxsus ko'rsatkichlarda ifodalanadi, ya'ni muayyan lingvistik vositalarda mujassamlashgan bo'ladi.

N.N. Zaneginaning qayd etishicha¹, rus tilida sifat so'z turkumi misolida intensivlik kategoriyasining tadqiqi A.V.Ivancha ishlarida ko'zga tashlanadi². Muallif intensivlikning denotativlik masalasini ko'taradi va uning alohida belgi doirasida obyektiv va subyektiv miqdoriy xususiyatlarini tahlilga tortadi. Intensivlik xususiyatiga ega bo'lgan sifatlarning tahlili qiyosiy planda A.N.Minka tadqiqotlarida

¹ Занегина Н.Н. Имена прилагательные со значением интенсивности, меры проявления признака (внутриклассная организация и межклассные связи и отношения) <https://lexrus.ru/default.aspx?p=2917>

² Иванча А. В. Прилагательные со значением интенсивности в русском языке // Известия Саратовского университета. Сер. Филология. Журналистика. 2010. Вып. 4. Т. 10. С. 9-11.



amalgama oshirilgan³. G.I.Kustova rus tilining milliy korpusida to'plangan materiallar asosida "Rus idiomalari lug'ati" ni yaratadi. Lug'atda muallif mavjud materiallar asosida to'liq, noto'liq daraja xususiyatlarini beruvchi lingvistik birliklarni intensivlik kategoriyasi asosida o'rganadi.⁴

Hozirgi o'zbek adabiy tilida intensivlik kategoriyasini yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar rang-barang bo'lib, quyida sintaktik usullarda namoyon bo'lishiga to'xtalamiz.

1. Leksik birlikka nisbatan sintaktik birlik orqali ifodalangan ma'no kuchliroq bo'ladi: *mehribon – haddan tashqari mehribon, tepmoq – kuch bilan tepmoq, ochmoq – shahd bilan ochmoq va h.k.*

2. So'roq gap shakli orqali ifodalangan buyruq ma'nosi buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

M: *Yuring.*

Yoki: *Yurmaysizmi?*

3. Buyruq gaplarning kesimi, odatda, gap oxirida keladi. Ba'zan buyruqni kuchaytirish, do'q-po'pisa ma'nosi ifodalanganda, kesim gap boshida keladi.

M: *Qo'lingizni oling. – Oling qo'lingizni.*

4. Havola bo'lakli qo'shma gaplar bilan ularga sinonim bo'lgan sodda gaplar bir xil mazmun ifodalash jihatidan umumiylikni tashkil etadi. Ammo havola bo'lakli qo'shma gaplarda unga sinonim bo'lgan sodda gaplarga nisbatan ma'no ta'kidlangan bo'ladi

Ertamiz bugungidan porloqroq bo'lishiga aminman.

Shunga aminmanki, ertamiz bugungidan porloqroq bo'ladi.

5. Sifatlovchi aniqlovchi tartibni o'zgartirish orqali (o'rin almashtirish yo'li bilan) ajratilar ekan, bunda sifatlovchining ma'nosi odatdagi tartib bilan qo'llangan sifatlovchiga nisbatan bo'rttiriladi, alohida

³ Минка А. Н. Прилагательные со значением степени и дискурсивное варьирование их градуальных признаков (На материале текстов русского и английского языков). Дис. ... канд. филол. наук. Краснодар, 2005.

⁴ Кустова Г.И. Словарь русской идиоматики. Сочетания слов со значением высокой степени. Режим доступа: <http://dict.ruslang.ru/magn.php>.



ta'kidlanadi, gapdagi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismga aylanadi.

M: *Domla – sersoqol, rangpar, oriq – qiroat bilan o'qir edi.*

6. Undalmali gaplarda undash ma'nosini yanada kuchaytirish uchun turli undovlar ham birga qo'llanilishi, undalmalar takror holda kelishi mumkin.

M: *Oyi, oyi, o'rtoqlarim kelishyapti.*

Yoki: *Hoy qizginam-ey, qizginam-ey. Kel, kira qol.*

7. Sifatlovchi aniqlovchilar ba'zan predmet yoki shaxslarning belgisini qabartirish, ortiq darajasini ko'rsatish uchun xizmat qilishi mumkin.

M: *go'zal tilimiz – go'zal, musaffo, ilhombaxsh tilimiz*

Yoki: *aqlli yigit – aqli raso yigit*

8. Qo'shma gaplar bog'lovchili yoki bog'lovchisiz qo'llanganda mazmun munosabatida turli farq va o'ziga xosliklar yuzaga keladi. Ya'ni bog'lovchili (ya'ni bog'langan va ergashgan) qo'shma gaplarda bog'lovchi vositalar borligi sababli, zidlash, shart, payt, sabab-natija, qiyoslash-o'xshatish kabi ma'no munosabatlari aniq, ochiq, qabariq ifodalanadi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ham zidlash, shart, payt, sabab, o'xshatish kabi munosabatlar ifodalanadi, ammo bu ma'no munosabatlari bog'lovchi vositalar bo'lmagani sababli shaklan eks etmaydi.

M: *Til millatning bebaho mulki, shuning uchun uni hamisha muhofaza qilmoq lozim.*

Yoki: *Til millatning bebaho mulki: uni hamisha muhofaza qilmoq lozim.*

Bundan tashqari, iboralarning deyarli barchasi ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka ega hisoblanadi. M: *kutmagan* so'zi yetti uxlab tushiga kirmagan iborasi bilan ma'nodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan so'zdan ancha ustun.

Yoki: *o'taketgan – uchiga chiqqan; beqiyos (juda) – yer bilan osmoncha; albatta – turgan gap; hech qachon – ikki dunyoda (ham).*



Iboralarga ko'chim va bo'rttirish xos. M: *qo'rqib ketdi* so'zi bilan *yuragi yorildi* iborasi ma'nodosh, biroq ibora holatni ta'sirchanroq, mubolag'ali ifodalagani, shuningdek, ko'chma ma'noda ekani (aslida yuragi yorilgani yo'q) bilan farqlanadi.

Sanab o'tilgan barcha birliklar so'zlovchining belgiga turlicha munosabatini, u yoki bu xususiyatni ifodalashni ko'rsatadi. Shunday qilib, intensivlik tushunchasi tilning semantik kategoriyasi sifatida belgining ifoda o'lchovi tarzida talqin qilinadi va miqdor, sifat va daraja tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, tilning barcha sathlarida – fonemadan tortib murakkab sintaktik birliklargacha namoyon bo'ladi. Intensivlik kategoriyasining amalga oshirilishi sintaktik usuldan tashqari fonetik, morfologik va leksik-semantik usullarda ham ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Занегина Н.Н. Имена прилагательные со значением интенсивности, меры проявления признака (внутриклассная организация и межклассные связи и отношения) <https://lexrus.ru/default.aspx?p=2917>
2. Иванча А. В. Прилагательные со значением интенсивности в русском языке // Известия Саратовского университета. Сер. Филология. Журналистика. 2010. Вып. 4. Т. 10. С. 9-11.
3. Минка А. Н. Прилагательные со значением степени и дискурсивное варьирование их градуальных признаков (На материале текстов русского и английского языков). Дис. ... канд. филол. наук. Краснодар, 2005.
4. Кустова Г.И. Словарь русской идиоматики. Сочетания слов со значением высокой степени. Режим доступа: <http://dict.ruslang.ru/magn.php>.